№ 10-AMALIY MASHG‘ULOT



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI INFORMATIKA TA’LIMIGA TAYYORLASH.

Ishning maqsadi: *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot savodxonligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularning kelajakda muvaffaqiyatli ta’lim olishlari, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.*

- **Axborotni izlash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish:**

o talabalarni turli manbalardan *(kitoblar, internet, ommaviy axborot vositalari)* axborot izlash, uni tahlil qilish va baholashga o‘rgatish;

o ularga ishonchli va ishonchsiz manbalarni ajratish, faktlar va fikrlarni farqlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

- **Axborotdan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish:**

o talabalarni axborotni to‘g‘ri qayta ishlash, saqlash va taqdim etishga o‘rgatish;

o ularga matnlar, rasmlar, videolavhalar va boshqa multimedia materiallari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

- **Axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish:**

o talabalarga internetdagi xavflar *(kiberbulling, firibgarlik, noto‘g‘ri ma’lumotlar*) haqida tushuntirish berish;

o ularga shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

- **Axborot etikasi va qonunlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish:**

o talabalarga mualliflik huquqi, plagiat va boshqa axborot etikasi qoidalari haqida tushuntirish berish;

o ularga axborotdan qonuniy va axloqiy me’yorlarga rioya qilgan holda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

- **Muloqot va hamkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish:**

o talabalarni axborot texnologiyalari yordamida muloqot qilish, hamkorlik qilish va guruhlarda ishlashga oʻrgatish.

o ularga onlayn muhitda oʻzaro hurmat va hamjihatlik qoidalariga rioya qilish koʻnikmalarini rivojlantirish.

- **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:**

o axborotni tanqidiy baholash va tahlil qilish, shuningdek, turli xil nuqtai nazarlarni hisobga olish qobiliyatini rivojlantirish.

o talabalarni ma'lumotni shubha ostiga qoʻyishga va oʻz xulosalarini chiqarishga oʻrgatish.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining axborot savodxonligini shakllantirish ularga zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zarur boʻlgan asosiy koʻnikmalarni beradi.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta'minlash;

2. mavzuni yoritishda lozim boʻladigan dasturiy ilovadan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish;

3. internetdan ta'limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini oʻrgatish.

Oʻquv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma'lumot

Ta'lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi oʻsib-ulgʻayib kelayotgan yoshlami vatanparvar, zamonaviy bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga koʻplab oʻzgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan biri bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib dars oʻtishda mashgʻulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan.

Bundan kelib chiqqan holda ta‘‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta’minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo‘ldi. Ayniqsa, o‘quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo‘llanmalarning “Macromedia Flash”, “GIF Animation”, “Microsoft Front Page”, “Abobe Fotoshop”, “3D Max”, “Microsoft PowerPoint” kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi juda qulaylik tug‘diradi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;
3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   3.2. talabalarni rajbatlantirish;
   3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Quydagi jadval sifatida keltirilgan ma’lumotlarni guruhlarga ajrating.

Axborot manbalari:

a) yaqin do‘st bilan suhbat; b) filmlar, c) ota-onalar maslahati; d) chizmalar, d) kitoblar, e) ensiklopediyalar; g) rasmlar, i) musiqa, j) multfilmlar,	k) o‘qituvchining tavsiyaci, m) qushlarning sayrashi, n) hisobotlar, o) maqolalar, n) sxemalar, p) fotosuratlar, c) avtomobil signallari; r) barglarning shitirlashi y) chizmalar,

Guruhlar: matnli ma’lumotlar_____

grafik ma’lumotlar _____

audio ma’lumotlar _____

video ma’lumotlar _____

Ballar bo‘yicha taqsimot: (har bir to‘g‘ri javob uchun – 1 ball), (18-15) ball – yuqori daraja, (14-11) ball – o‘rta daraja, (10-6) ball – quyi daraja.

2-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan **“**Mavzular haftaligi” mavzularini ishlab chiqishni tashkil eting va yakunda ma’lumotlarni Canva onlayn taqdimotida birlashtiring.

- Yoz xotiralari haftaligi – sinf burchagi fotosuratlarda;
- “Kuz tashrifi haftaligi” – “Kuzgi albom”;
- Dinozavrlar haftaligi – paleontologiya muzeyiga virtual sayohat;
- Vitaminlar haftaligi – “Vitaminlarga boy salatlar”, maktab ilmiy-amaliy konferentsiyasida "Vitaminlar tarixi" loyihasi bilan ishtirok etish;
- Uy hayvonlari haftaligi – “Uy hayvonlari” mavzusida insho yozish;

- O‘yin va o‘yinchoqlar haftaligi – Sevimli o‘yinchoqlar kuni – fotosuratlari bilan “Mening sevimli o‘yinchog‘im” mavzusida insho yozish;
- “Yangi yil o‘yinchoqlari tarixi” haftaligi – O‘zbekiston milliy bog‘iga sayohat. Yangi yil mavzusida birinchi sinf o‘quvchilari uchun sinf soati;
- Zararli va sog‘lom oziq-ovqat haftaligi – “Konfetlar yeyish kuni”; bayramini uyushtirish;
- Onalar haftaligi – 8 martga bag‘ishlangan bayram tadbiri;
- “Sayyoramizning hayvonlar dunyosi” haftaligi – Toshkent hayvonot bog‘iga sayohat.

3-topshiriq. Produktiv topshiriqlardan namunalar keltiring**.**